

TALABALARNING TARIXIY TAFAKKUR DARAJASINI BAHOLASH MEZONLARINI ISHLAB CHIQUISHDA XALQARO TAJRIBANING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

A.M.Axmedov

NamDU mustaqil izlanuvchisi

E-mail: axmedovm77@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarning tarixiy tafakkur darajasini baholash mezonlarini ishlab chiqishning nazariy va metodologik asoslari xalqaro tajriba misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda Kanada Historical Thinking Project, Stanford universiteti qoshidagi Digital Inquiry Group, International Baccalaureate tarix kursi hamda College Board'ning AP World History tizimi qiyosiy o'rganildi. Tahlil natijasida tarixiy tafakkurni baholashda tarixiy ahamiyatni belgilash, birlamchi manba bilan ishlash, sabab-oqibatni tahlil qilish, davomiylik va o'zgarishni aniqlash, tarixiy perspektivani tushunish, dalillangan argument qurish, kontekstualizatsiya va manbalarni o'zaro tekshirish kabi komponentlar tayanch mezonlar sifatida ajralib chiqdi. Maqolada mazkur komponentlar asosida oliy ta'lim uchun moslashgan mezonlar tizimi, indikatorlar va baholash darajalari taklif etiladi. Natijalar tarix fanini o'qitishda reproduktiv nazoratdan analitik-dagnostik baholashga o'tish zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: tarixiy tafakkur, baholash mezonlari, xalqaro tajriba, tarixiy kompetensiya, birlamchi manba, kontekstualizatsiya, argumentatsiya, oliy ta'lim.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCE IN DEVELOPING CRITERIA FOR ASSESSING STUDENTS' HISTORICAL THINKING

Abstract. This article analyzes the theoretical and methodological foundations of developing criteria for assessing students' historical thinking on the example of international experience. The study comparatively studied the Canadian Historical Thinking Project, the Digital Inquiry Group at Stanford University, the International Baccalaureate history course, and the College Board's AP World History system. As a result of the analysis, components such as determining historical significance, working with primary sources, cause-and-effect analysis, identifying continuity and change, understanding a historical perspective, building a substantiated argument, contextualization, and cross-checking sources were identified as basic criteria for assessing historical thinking. Based on these components, the article proposes a system of criteria, indicators, and assessment levels adapted for higher education. The results indicate the need to move from reproductive control to analytical-diagnostic assessment in teaching history.

Keywords: historical thinking, assessment criteria, international experience, historical competence, primary source, contextualization, argumentation, higher education.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА В РАЗРАБОТКЕ КРИТЕРИЕВ ОЦЕНКИ ИСТОРИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и методологические основы разработки критериев оценки исторического мышления студентов на примере международного опыта. В исследовании сравнительно изучались Канадский проект исторического мышления, группа цифровых исследований Стэнфордского университета, курс истории Международного бакалавриата и система AP World History от College Board. В результате анализа были определены такие компоненты, как определение исторической значимости, работа с первоисточниками, причинно-следственный анализ, выявление преемственности и изменений, понимание исторической перспективы, построение обоснованного аргумента, контекстуализация и перекрестная проверка источников, как основные критерии оценки исторического мышления. На основе этих компонентов в статье предлагается система критериев, показателей и уровней оценки, адаптированная для высшего образования. Результаты указывают на необходимость перехода от репродуктивного контроля к аналитико-диагностической оценке в преподавании истории.

Ключевые слова: историческое мышление, критерии оценки, международный опыт, историческая компетентность, первоисточник, контекстуализация, аргументация, высшее образование.

KIRISH

Zamonaviy tarix ta'limida asosiy masala talabning qancha fakt yodlagani emas, balki u tarixiy voqea va jarayonlarni qanday tushuntira olishi, manbalarni qay darajada tanqidiy o'qishi, dalil asosida xulosa chiqara olishi bilan belgilanadi. Shu bois tarixiy tafakkur kategoriyasi so'nggi o'n yilliklarda tarix didaktikasining markaziy tushunchalaridan biriga aylandi. Kanada tarix ta'limi maktabida tarixiy tafakkur oltita o'zaro bog'liq komponent orqali ifodalanadi: tarixiy ahamiyat, birlamchi manba dalili, davomiylik va o'zgarish, sabab va oqibat, tarixiy perspektiva hamda tarixiy talqinning axloqiy o'lchami. IB tarix kursida esa ko'p-perspektivali yondashuv, o'zgarish, sababiylik va ahamiyat kabi konseptlar tayanch o'quv natijalari sifatida ko'rsatilgan. AP World History tizimi tarixiy jihatdan himoyalanganadigan tezis, kontekstualizatsiya, dalillardan foydalanish va tahlilni baholash markaziga qo'yadi. Stanforddan shakllangan va hozir

Digital Inquiry Group sifatida faoliyat yuritayotgan yo'nalish esa sourcing, contextualization, corroboration va close reading ko'nikmalarini tarixiy fikrlashning amaliy tayanchi deb ko'rsatadi.

METODOLOGIYA

Muammo shundaki, ko'plab amaliy baholash tizimlarida tarixiy tafakkur hanuz faktologik o'zlashtirish bilan tenglashtiriladi. Natijada talabanning tarixiy manbaga munosabati, dalillash sifati, qarama-qarshi talqinlarni ajratish qobiliyati va tarixiy kontekstni anglash darajasi to'liq diagnostika qilinmaydi. Tarixiy tafakkurni baholashga bag'ishlangan tadqiqotlar esa bu yo'nalishda nazariy aniqlik, validlik va amaliy qulaylikni birlashtirgan mezonlar tizimi zarurligini ko'rsatadi. Ercikan va Seixas tahriri ostidagi ilmiy to'plam tarixiy tafakkurni baholashda kognitiv maqsadlarni aniq belgilash, mazmuniy bilim bilan protseduraviy bilim nisbatini ochish va baholash vositalarini validatsiya qilish muhimligini ta'kidlaydi. Smith, Breakstone va Wineburgning HAT bo'yicha validlik tadqiqotida qisqa konstruktiv javobli topshiriqlar tarixiy tafakkurning mo'ljallangan konstruktlarini tanlash testlariga qaraganda chuqurroq ushlashi ko'rsatilgan.

Shu jihatdan mazkur maqolaning maqsadi — talabalarning tarixiy tafakkur darajasini baholash mezonlarini ishlab chiqishda xalqaro tajribaning nazariy va metodologik asoslarini aniqlash hamda oliy ta'lim sharoitiga moslashgan mezonlar modelini taklif etishdir.

Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, kontent-tahlil va konseptual modellash metodlari qo'llanildi. Empirik baza sifatida to'rtta nufuzli xalqaro yo'nalish tanlandi: 1) Canada Historical Thinking Project; 2) Stanford an'anasidan rivojlangan Digital Inquiry Group; 3) International Baccalaureate Diploma Programme History; 4) College Board AP World History: Modern. Mazkur manbalar tarixiy tafakkurni o'qitish va baholashning eng ko'p iqtibos qilinadigan va amalda qo'llanadigan platformalari bo'lgani uchun tanlandi. Qo'shimcha ravishda tarixiy tafakkurni baholash bo'yicha metodologik tadqiqotlar,

xususan New Directions in Assessing Historical Thinking hamda HAT bo'yicha validlik ishlari tahlil qilindi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Tahlil bir necha bosqichda olib borildi. Birinchi bosqichda har bir tizimda tarixiy tafakkur qanday konseptual birliklar orqali ifodalanishi ajratib olindi. Ikkinchi bosqichda o'sha birliklarning baholashdagi operatsional ko'rinishlari, ya'ni qaysi topshiriqlar, rubrikalar va indikatorlar bilan o'lchanishi solishtirildi. Uchinchi bosqichda umumiy invariant komponentlar va tizimlararo farqli jihatlar aniqlanib, oliy ta'lim uchun integrallashgan mezonlar modeli ishlab chiqildi. Metodologik prinsip sifatida uch talab saqlandi: konstrukt aniqligi, indikatorlarning kuzatiluvchanligi va baholash natijasining pedagogik interpretatsiya uchun yaroqliligi. Bu yondashuv tarixiy tafakkurni "bilimlar yig'indisi" emas, balki mazmuniy bilim va intellektual amallarning birligi sifatida talqin qilishga asoslanadi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, xalqaro tajribalarda tarixiy tafakkur turlicha terminlar bilan ifodalansa-da, ularni birlashtiruvchi tayanch yadro mavjud. Historical Thinking Project tarixiy tafakkurni olti konsept asosida quradi. IB tarix kursi ko'proq perspektivlik, sabab va oqibat, o'zgarish va ahamiyatga urg'u beradi. AP tizimi argument, kontekstualizatsiya, aniq dalildan foydalanish va tahliliy mulohazani baholaydi. Digital Inquiry Group esa manba kelib chiqishini aniqlash, uning yaratilish sharoitini tushuntirish, boshqa manbalar bilan solishtirish va matnni yaqin o'qish strategiyalarini asosiy ko'nikma sifatida ishlab chiqqan. Demak, xalqaro tajribalarning barchasida tarixiy tafakkur uch qatlamdan tashkil topadi: birinchisi — kontekstual tushunish; ikkinchisi — manba bilan tanqidiy ishlash; uchinchisi — dalillangan tarixiy izoh va xulosa ishlab chiqish.

Tahlil natijasida oliy ta'lim talabalari uchun quyidagi integrallashgan mezonlar majmui ishlab chiqildi.

Birinci mezon — tarixiy kontekstni anglash. Bunda talaba voqea yoki jarayonni vaqt, makon, siyosiy, iqtisodiy va madaniy muhit bilan bog'lay olishi kerak. Mazkur mezon AP rubrikasidagi contextualization va IB tarixidagi konseptual joylashtirish bilan mos keladi.

Ikkinchi mezon — birlamchi va ikkilamchi manbalar bilan ishlash. Bu yerda talaba manbaning muallifini, yaratilgan davrini, maqsadini, auditoriyasini, cheklovlarini va ishonchlilik darajasini ajratadi. Stanford yo'nalishidagi sourcing va corroboration, shuningdek HTPdagi primary source evidence aynan shu mazmunni anglatadi.

Uchinchi mezon — sabab-oqibat va davomiylik-o'zgarishni tahlil qilish. Tarixiy voqeani faqat bitta omil bilan izohlash emas, balki omillar tizimini, qisqa va uzoq muddatli natijalarni ajratish baholanadi. Bu komponent Kanada va IB modellari uchun markaziy o'rin tutadi.

To'rtinchi mezon — tarixiy perspektiva va ko'p talqinlilikni tushunish. Talaba turli ijtimoiy guruhlar, siyosiy kuchlar yoki tarixchilar bir hodisani turlicha talqin qilishini ko'rsata olishi zarur. IB tarix kursining ko'p-perspektivali xususiyati va HTPdagi perspective-taking shu mezonning nazariy asosidir.

Beshinchi mezon — dalillangan argument qurish. AP rubrikalarida bu tarixiy jihatdan himoyalangan tezis, mos dalillar va tahlil orqali o'lchanadi. HAT tadqiqotlari ham tarixiy tafakkurni aniqlashda konstruktiv yozma javoblarning samaradorligini ko'rsatadi.

Oltinchi mezon — tarixiy ahamiyatni belgilash va refleksiya. Talaba qaysi voqea nima sababdan muhim bo'lganini, uning keyingi taraqqiyotga ta'sirini va hozirgi talqinlardagi o'rnini tushuntira olishi kerak. Bu HTPda mustaqil konsept sifatida berilgan.

Mazkur komponentlar asosida 100 ballik baholash modeli taklif qilindi: tarixiy kontekst — 15 ball, manba bilan ishlash — 20 ball, sabab-oqibat va davomiylik-o'zgarish — 15 ball, perspektiva va talqinlar — 15 ball, argumentatsiya — 20 ball, tarixiy ahamiyat

va refleksiya — 15 ball. Ushbu taqsimot xalqaro modellarni qiyosiy tahlil qilish natijasida ishlab chiqildi va unda manba tahlili hamda argumentatsiyaga yuqori ulush berildi, chunki aynan shu ikki blok tarixiy tafakkurning murakkab kognitiv faoliyat sifatida namoyon bo'lishini kuchliroq aks ettiradi. Bunday nisbat HAT tadqiqotlari va AP/IB amaliyotidagi yozma, dalillangan topshiriqlar ustuvorligi bilan hamohangdir.

Natijada tarixiy tafakkur darajalarini to'rt pog'onada ifodalash maqsadga muvofiq deb topildi. Past darajada talaba asosan reproduktiv javob beradi, kontekst va manba tahlili sust bo'ladi. O'rta darajada ayrim tahliliy elementlar mavjud, lekin izchillik yetishmaydi. Yaxshi darajada talaba voqeani kontekstual tushuntiradi, manbani tanqidiy sharhlaydi va argument quradi. Yuqori darajada esa talaba ko'p manbali, ko'p-perspektivali, dalillangan va refleksiv tarixiy xulosa ishlab chiqadi. Bu darajalash xalqaro rubrikalardagi progressiv murakkablik prinsipiga mos keladi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, tarixiy tafakkurni baholash mezonlari oddiy bilim nazoratidan tubdan farq qiladi. Xalqaro amaliyotda muvaffaqiyatli baholash tizimlari uch belgiga ega: ular birinchidan, tarix fanining o'ziga xos epistemik tabiatini hisobga oladi; ikkinchidan, manbalar bilan ishlashni markazga qo'yadi; uchinchidan, tayyor javobni emas, asoslangan mulohazani baholaydi. Shu bois tarixiy tafakkur darajasini aniqlash uchun faqat yopiq test topshiriqlariga tayanish yetarli emas. HAT bo'yicha tadqiqotlar ham qisqa konstruktiv javobli topshiriqlar tarixiy fikrlashni tanlash testlariga qaraganda chuqurroq ochishini ko'rsatgan.

Mazkur holat oliy ta'lim metodikasiga bir necha xulosa beradi. Avvalo, baholash vositalari professor-o'qituvchining subyektiv kuzatuviga emas, aniq indikatorlarga tayangan rubrika asosida tuzilishi zarur. Ikkinchidan, tarixiy tafakkur bir topshiriq bilan to'liq o'lchanmaydi; manba tahlili, hujjat asosidagi esse, qiyosiy savol, sabab-oqibat xaritasi va og'zaki munozara kabi formatlar kompleks qo'llanishi kerak. Uchinchidan, baholash natijalari reyting qo'yish uchun emas, balki tarixiy tafakkurning qaysi

komponenti sust shakllanganini aniqlash uchun diagnostik vosita sifatida ishlatilishi kerak. Bu jihatlar tarixiy tafakkurni o'qitish va baholashning uzviy birligini talab qiladi.

Shu bilan birga, xalqaro tajribani bevosita ko'chirib olish metodik jihatdan to'g'ri bo'lmaydi. IB va AP tizimlari ko'proq kollejga tayyorlov va yuqori stakes baholash vazifasini bajaradi; Digital Inquiry Group esa maktab va media savodxonlik kesishmasida rivojlangan; Kanada modeli esa konseptual tarix didaktikasini chuqur ishlab chiqqan. Demak, milliy oliy ta'lim uchun ularning invariant elementlari olinishi, ammo indikatorlar o'quv dasturi, auditoriya xususiyati va fan moduli vazifalariga moslashtirilishi lozim. Aynan shu nuqtada nazariy asos bilan metodologik moslashtirish birlashadi.

XULOSA

Tadqiqot natijasida talabalarning tarixiy tafakkur darajasini baholash mezonlarini ishlab chiqishda xalqaro tajriba mustahkam nazariy va metodologik asos bera olishi aniqlandi. Qiyosiy tahlil Kanada, Stanford/Digital Inquiry Group, IB va AP tizimlarida turli terminologik tafovutlar bo'lsa-da, tarixiy tafakkurning yadrosi deyarli umumiy ekanini ko'rsatdi. Ushbu yadro tarixiy kontekstni anglash, manbani tanqidiy tahlil qilish, sabab-oqibat va davomiylik-o'zgarishni tushuntirish, ko'p-perspektivali talqinlarni ajratish, dalillangan argument qurish hamda tarixiy ahamiyatni belgilash komponentlaridan iborat.

Shu asosda oliy ta'lim uchun ishlab chiqilgan mezonlar modeli tarix fanini o'qitishda analitik, diagnostik va kompetensiyaviy baholashni yo'lga qo'yishga xizmat qiladi. Uning amaliy ahamiyati shundaki, u professor-o'qituvchiga talabanning tarixiy tafakkurini umumiy taassurot asosida emas, aniq kuzatiladigan indikatorlar orqali baholash imkonini beradi. Kelgusidagi tadqiqotlarda mazkur modelni eksperimental sinovdan o'tkazish, rubrikalarning ishonchliligi va validligini empirik tekshirish, shuningdek geymifikatsiya va raqamli platformalar asosidagi baholash topshiriqlariga moslashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. The Historical Thinking Project. Historical Thinking Concepts - <https://historicalthinking.ca/historical-thinking-concepts>
2. The Historical Thinking Project. About the Historical Thinking Project - <https://historicalthinking.ca/about-historical-thinking-project>
3. Digital Inquiry Group. Official site and framework materials - <https://www.inquirygroup.org>
4. International Baccalaureate. History in the DP – <https://www.ibo.org/programmes/diploma-programme/curriculum/individuals-and-societies/history>
5. College Board. AP World History: Modern Exam - <https://apcentral.collegeboard.org/courses/ap-world-history/exam>
6. College Board. AP World History: Modern 2025 Scoring Guidelines, Set 1 - <https://apcentral.collegeboard.org/media/pdf/ap25-sg-world-history-modern-set-1.pdf>
7. Ercikan, K., Seixas, P. (eds.). *New Directions in Assessing Historical Thinking*. Routledge - <https://www.routledge.com/New-Directions-in-Assessing-Historical-Thinking/Ercikan-Seixas/p/book/9781138018273>
8. Smith, M., Breakstone, J., Wineburg, S. *History Assessments of Thinking: A Validity Study* - https://stacks.stanford.edu/file/druid%3Atj409fm6721/Smith%20Breakstone%20Wineburg_History%20Assessments%20of%20Thinking.pdf
9. Seixas, P. *Assessment of Historical Thinking* - https://historybenchmarks.ca/sites/default/files/files/docs/2012Report_EN.pdf
10. Thorp, R. *On historical thinking and the history educational challenge* - <https://www.tandfonline.com/doi/full/10.1080/00131857.2020.1712550>